

Uzbekistan Airways Mineralniye Vodiga parvozlar sonini oshirmoqda

2022 22 Aprel

“Uzbekistan Airways” AJ Toshkent – Mineralniye Vodi – Toshkent xalqaro yo‘nalishi bo‘yicha parvozlar soni oshirilishini ma‘lum qildi. Ayni paytda aviaqatnovlar muntazam ravishda yakshanba kunlari amalga oshirilmoqda, 2022-yil 4-maydan boshlab ular chorshanba kunlari ham amalga oshirila boshlaydi.

Toshkent – Mineralniye Vodi yo‘nalishi bo‘yicha aviachipta narxi 1 800 553 so‘mdan (bagajsiz) va 1 960 909 so‘mdan (bagaj bilan), Toshkent - Mineralniye Vodi - Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha esa aviachipta narxi 3 440 873 (bagajsiz) so‘mdan, 3 773 192 so‘mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 22.04.2022 holatiga ko‘ra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan www.uzairways.com, Uzbekistan Airways Salesfilialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.